

**Tasdiqlayman**  
**“O‘zavtoyo‘lbelgi” DM**  
**Komissiya rayisi**  
**M.A.Xudoyberdiev**  
2026

## **TEXNIK TOPSHIRIQ**

**Sovuq plastik, termoplast va akril bo'yoq yordamida, yorug'likni qaytaruvchi shisha to'plarchalaridan foydalangan holda gorizonta va tik yo'l yotiq chiziqlarini chizish hamda demarkirovka ishlarini bajarish bo'yicha.**

Mazkur texnik topshiriq eng yaxshi taklifni tanlash bo'yicha xarid hujjatlarining ajralmas qismi hisoblanadi va g'olib aniqlangandan so'ng tuziladigan shartnomaga ilova qilinadi.

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar ro'yxati	Asosiy ma'lumotlar va talablarning mazmuni
1	<b>Buyurtmachi</b>	<p>O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi "Uzavtoyolbelgi" davlat muassasasi.</p> <p>Manzil: Toshkent shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 68, 100170.</p> <p>Telefon: +998 (71) 268-92-49.</p> <p>Faks : +998 (71) 268-92-61</p>
2	<b>Loyihani amalga oshirish uchun asos</b>	<p>O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2025 yil 9 dekabrda 05/1-2540-son xati.</p> <p>Mazkur texnik topshiriq va taraflar o'rtasida tuziladigan shartnoma shartlari.</p>
3	<b>Shartnoma taraflari</b>	<p>Pudratchi - O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining "O'zavtoyolbelgi" davlat muassasasi.</p> <p>Subpudratchi - Pudratchi bilan tuzilgan shartnoma asosida ushbu texnik topshiriqda nazarda tutilgan ishlarni bajaruvchi xo'jalik yurituvchi subyekt.</p>
4	<b>Xizmatlar bajariladigan hudud</b>	<p>Ishlar O'zbekiston Respublikasi hududidagi xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatga ega avtomobil yo'llarida, shuningdek Pudratchi tomonidan arizada ko'rsatilgan boshqa yo'l uchastkalarida bajariladi.</p>
5	<b>Xizmatning predmeti</b>	<p>Subpudratchi sovuq plastik, termoplast va akril bo'yoq materiallari hamda yorug'likni qaytaruvchi shisha to'pchalaridan foydalangan holda gorizont va tik yo'l chiziqlarini chizish, zarurat bo'lganda eskirgan chiziqlarni demarkirovka qilish, ish joyini tayyorlash, xavfsizlik choralarini ko'rish va tegishli ijro hujjatlarini rasmiylashtirish bo'yicha xizmatlarni bajaradi.</p> <p>Bajariladigan ishlar yo'l harakati xavfsizligini oshirish, harakatni tartibga solish va amaldagi standartlar talablariga muvofiq ravishda belgilarni sifatli qo'llashga qaratilgan bo'lishi shart.</p>
6	<b>Xizmat turlari va o'lchov birligi</b>	<p>Gorizont yo'l chiziqlarini chizish: 1.1, 1.2, 1.3, 1.4, 1.5, 1.6, 1.7, 1.8, 1.9, 1.10, 1.11.</p> <p>Gorizont yo'l chiziqlarini chizish: 1.12, 1.14.1 - 1.14.4, 1.15.</p> <p>Gorizont yo'l chiziqlarini chizish: 1.13, 1.18, 1.19, 1.20, 1.21, 1.22, 1.23, 1.24, 1.25, 1.26, 1.27, 1.28, 1.29, 1.30.</p> <p>Gorizont yo'l chiziqlarini chizish: 1.16.1 - 1.16.3, 1.17.</p> <p>Shovqinli chiziqlar: 1.31.</p> <p>Demarkirovka - eskirgan, o'chgan yoki dolzarbligini yo'qotgan yo'l chiziqlarini olib tashlash.</p> <p>O'lchov birligi - 1 kilometrda.</p>
7	<b>Ish hajmi</b>	<p>Ish hajmi Pudratchi tomonidan Subpudratchiga yuboriladigan arizalarda belgilanadi. Har bir arizada ob'ekt</p>

		<p>manzili, ish turlari, taxminiy hajm, qo'llaniladigan material turi, bajarish muddati va zarur bo'lgan qo'shimcha ko'rsatmalar ko'rsatiladi.</p> <p>To'lov faqat amalda bajarilgan, dalolatnoma va hisob-faktura hamda bajarilgan ishlar dalolatnomasi hujjatlari bilan tasdiqlangan ish hajmlari uchun amalga oshiriladi.</p>
8	<b>Ishlarni bajarish muddati</b>	<p>Ishlar shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 365 kalendar kun davomida yoki shartnomada belgilangan boshqa muddatlarda bajariladi.</p> <p>Har bir alohida ob'ekt bo'yicha muddat Pudratchining arizasida belgilanadi. Subpudratchi ishlarni kelishilgan muddatdan kechiktirmasdan yakunlashi shart.</p>
9	<b>Ishlarni tashkil etish tartibi</b>	<p>Pudratchi Subpudratchiga yozma, elektron pochta yoki boshqa ke</p> <p>lishilgan aloqa vositalari orqali ariza yuboradi.</p> <p>Subpudratchi ariza olingan kundan e'tiboran ishlarni tashkil etish bo'yicha tayyorgarlik ko'radi va belgilangan muddatlarda ishga kirishadi.</p> <p>Zarurat bo'lganda Pudratchi ob'ekt bo'yicha qo'shimcha yozma ko'rsatmalar berishga haqli.</p>
10	<b>Subpudratchining asosiy majburiyatlari</b>	<p>Ishlarni mazkur texnik topshiriq, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, davlat standartlari va shartnoma talablariga muvofiq ravishda sifati, o'z vaqtida va xavfsiz bajarish.</p> <p>Ishlarni bajarish uchun yetarli malakali xodimlar, maxsus texnika, mexanizmlar, materiallar va himoya vositalari bilan ta'minlash.</p> <p>Ish jarayonida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, vaqtinchalik ogohlantiruvchi belgilar va to'siqlarni o'rnatish hamda olib tashlash.</p> <p>Bajarilgan ishlar bo'yicha fotohisobot, dalolatnomalar, materiallar sertifikatlari va boshqa ijro hujjatlarini taqdim etish.</p> <p>Ishlarni bajarish davomida uchinchi shaxslar, yo'l foydalanuvchilari va atrof-muhitga zarar yetkazilishining oldini olish.</p>
11	<b>Pudratchining asosiy majburiyatlari</b>	<p>Subpudratchiga ob'ektlar bo'yicha arizalarni o'z vaqtida yuborish va zarur hollarda tushuntirishlar berish.</p> <p>Bajarilgan ishlar hajmi va sifatini nazorat qilish, dalolatnomalarni ko'rib chiqish hamda asosli e'tirozlar mavjud bo'lsa, ularni yozma ravishda bildirish.</p> <p>Shartnomada nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda to'lovlarni amalga oshirish.</p>
12	<b>Materiallar va uskunalarga qo'yiladigan talablar</b>	<p>Yo'l chiziqlarini chizishda qo'llaniladigan sovuq plastik, termoplast, akril bo'yoq hamda yorug'likni qaytaruvchi shisha to'pchalarga amaldagi O'zMSSt, GOST, EN, ShNQ va boshqa majburiy normativ-huquqiy hamda texnik hujjatlar</p>

talablariga to'liq javob berishi shart. Xususan, yo'l chiziqlari, ularning tasnifi va texnik talablariga nisbatan **O'zMSt 562:2025** talablariga rioya etilishi majburiy hisoblanadi. Mazkur standart ushbu texnik topshiriqning milliy normativ asoslaridan biri sifatida qo'llaniladi.

Qo'llaniladigan barcha materiallar bo'yicha ishlab chiqaruvchi tomonidan berilgan texnik pasport, sifat sertifikati, muvofiqlik hujjati, qo'llash reglamenti, saqlash shartlari hamda yaroqlilik muddati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishi shart. Barcha materiallar yangi, ilgari foydalanilmagan, zavodda ishlab chiqarilgan hamda yaroqlilik muddati o'tmagan bo'lishi lozim.

Subpudratchi tomonidan qo'llaniladigan yo'l chiziqlari materiallari Yevropa standartlari yoki ularga tenglashtirilgan xalqaro standartlar bo'yicha sinovdan o'tgan bo'lishi shart. Bunda kamida quyidagi sinov hujjatlari mavjud bo'lishi lozim:

— **EN 1436** bo'yicha ekspluatatsion ko'rsatkichlar sinovi yoki ularga tenglashtirilgan xalqaro standartlar;

— **EN 1824** bo'yicha road trial yoki ularga tenglashtirilgan xalqaro standartlar;

— **EN 1871** bo'yicha fizik-kimyoviy xossalar sinovi yoki ularga tenglashtirilgan xalqaro standartlar;

— **EN 13197** bo'yicha ishqalanish va yeyilishga chidamlilik sinovi yoki ularga tenglashtirilgan xalqaro standartlar;

— zaruratga ko'ra shisha to'pchalar va yordamchi komponentlar bo'yicha alohida laboratoriya xulosalari.

Mazkur sinovlar **AETEC laboratoriyasi** tomonidan yoki unga tenglashtiriladigan, **ENAC** hamda **O'zMSt ISO/IEC 17025** talablari asosida akkreditatsiyadan o'tgan boshqa laboratoriyalar tomonidan berilgan bo'lishi mumkin. Bunda sinov hujjatlarida mahsulot nomi, ishlab chiqaruvchi, sinov usuli, standart raqami, asosiy ko'rsatkichlari, sinov natijalari va amal qilish holati aniq ko'rsatilgan bo'lishi shart.

Shu bilan birga, mahsulotni ko'rib chiqishga ruxsat berishning majburiy shart sifatida **AETEC** yoki unga tenglashtirilgan xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriya tomonidan berilgan sertifikat mavjud bo'lishi lozim. Mazkur sertifikat **ENAC tomonidan akkreditatsiya qilingan laboratoriya** tomonidan berilgan bo'lishi hamda mahsulotning kamida quyidagi standartlar talablariga muvofiqligini tasdiqlashi shart:

— **EN 13197:2012+A1:2014** — qirilish, ishqalanish va yeyilishga chidamlilik bo'yicha;

— **EN 1436:2018** — ko'rinuvchanlik, qaytaruvchanlik va harakat xavfsizligi ko'rsatkichlari bo'yicha.

Subpudratchi tomonidan taqdim etiladigan barcha xorijiy sertifikatlar va sinov bayonnomalari belgilangan tartibda notarial tasdiqlangan o'zbek yoki rus tillaridagi tarjimai bilan birga taqdim etilishi shart.

		<p>Pudratchi talabiga ko'ra, Subpudratchi materiallarga oid asl nusxadagi yoki belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxadagi quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• — Test Report; Classification Report; Certificate of Conformity;</li> <li>• Declaration of Performance; Factory Production Control hujjati;</li> <li>• O'zMS ISO/IEC 17025 bo'yicha akkreditatsiya doirasi nusxasi;</li> <li>• Laboratory Accreditation Certificate;</li> <li>• Product Technical Data Sheet; Safety Data Sheet;</li> <li>• Boshqa tasdiqlovchi hujjatlar.</li> </ul> <p>Ish boshlanishidan avval Subpudratchi foydalaniladigan har bir turdagi materialdan kamida 3 (uch) tadan nazorat namunalarini (etalon) Pudratchiga taqdim etishi lozim. Ushbu namunalar muhrlanadi va ish jarayonida qo'llanilayotgan materialning sifatiga shubha tug'ilgan hollarda solishtirma laboratoriya tahlillari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.</p> <p>Tegishli sinov hujjatlariga, sertifikatlariga, akkreditatsiya asosiga hamda mazkur texnik topshiriqda nazarda tutilgan tasdiqlovchi hujjatlarga ega bo'lmagan materiallardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.</p> <p>Agar Pudratchi zarur deb topsa, Subpudratchidan material namunalari, qo'shimcha laboratoriya xulosalari, muvofiqlikni tasdiqlovchi hujjatlar hamda mahsulotning texnik va ekspluatatsion ko'rsatkichlari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar taqdim etilishi talab qilinishi mumkin.</p>
13	<b>Ishlarni bajarish texnologiyasiga qo'yiladigan talablar</b>	<p>Ish joyi xavfsizlik sxemasiga muvofiq o'rab olinadi va ogohlantiruvchi vositalar bilan jihozlanadi.</p> <p>Zarurat bo'lganda eskirgan chiziqlar demarkirovka qilinadi.</p> <p>Yo'l yuzasi chang, ifloslik, namlik va moy qoldiqlaridan tozalanadi hamda ishga tayyorlanadi.</p> <p>Chiziqlar Pudratchi bilan kelishilgan sxema va amaldagi normativlarga muvofiq oldindan belgilab olinadi hamda tegishli material bilan chiziladi.</p> <p>Ish yakunida ob'ekt qoldiq materiallar va chiqindilardan tozalanadi, vaqtinchalik xavfsizlik vositalari olib tashlanadi.</p>
14	<b>Ob-havo sharoitlariga oid talablar</b>	<p>Gorizontal yo'l chiziqlari amaldagi standartlar, texnologik talablar hamda material ishlab chiqaruvchisining rasmiy qo'llash reglamentiga muvofiq quyidagi sharoitlarda chiziladi: havo harorati 5–35°C, nisbiy namlik 85 foizdan oshmagan, yo'l qoplamasi harorati 5–45°C bo'lganda.</p> <p>Yomg'irli, qorli, tumanli yoki yo'l qoplamasi nam bo'lgan sharoitda ishlarni bajarishga yo'l qo'yilmaydi, bundan ishlab chiqaruvchi tavsiyalarida bevosita ruxsat etilgan holatlar mustasno.</p>
15	<b>Transport vositalari va maxsus texnikalarga qo'yiladigan talablar</b>	<p>Subpudratchi ishlarni to'liq, sifatli va belgilangan muddatlarda bajarish uchun yetarli miqdorda transport vositalari hamda maxsus texnikalarni jalb etishi shart.</p>

Ishlar bajarilishi davrida jalb etiladigan transport vositalari va maxsus texnikalarning umumiy soni jalb etiladigan texnika va transport vositalari soni bajariladigan ish hajmi va hududidan kelib chiqib yetarli bo'lishi lozim, bunda minimal texnik tarkib 2-ilovada belgilangan talablar asosida shakllantiriladi. Jalb etiladigan texnika va transport vositalari bajariladigan ish hajmi, ishlash hududi, harakat xavfsizligi talablari hamda ishlarni uzluksiz tashkil etish ehtiyojidan kelib chiqib yetarli bo'lishi lozim.

Jalb etiladigan barcha transport vositalari va maxsus texnikalar texnik soz, foydalanishga yaroqli, xavfsiz, amaldagi tartibda ro'yxatdan o'tgan hamda ulardan foydalanish uchun zarur hujjatlarga ega bo'lishi shart. Subpudratchi ularning mulk huquqi, ijara, lizing yoki boshqa qonuniy asosda jalb etilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi lozim.

Subpudratchi kamida quyidagi asosiy texnikalar mavjudligini ta'minlashi shart: sovuq plastik bilan chiziq chizish mashinalari, termoplast bilan chiziq chizish mashinalari, akril bo'yoq bilan chiziq chizish uskunalari, qo'lda ishlatiladigan markirovka uskunalari, demarkirovka uskunalari hamda yordamchi xizmat ko'rsatuvchi texnikalar.

Yo'l yotiq chiziqlarini chizish ishlarini bajarishda jalb etiladigan maxsus yo'l chiziq chizish texnikalari ishlab chiqarish quvvati, texnologik imkoniyatlari, xavfsizlik darajasi, ish unumdorligi va ekspluatatsion ko'rsatkichlari bo'yicha ushbu texnik topshiriq talablariga javob berishi shart.

Mazkur turdagi maxsus texnikalar kamida quyidagi talablarga javob berishi lozim:

— markirovka materiali uchun mo'ljallangan bunker hajmi bajariladigan ish hajmini uzluksiz va sifatli bajarish uchun yetarli bo'lishi, biroq kamida 1,0 m<sup>3</sup> dan kam bo'lmasligi  
— markirovka materialini sepish bosimi kamida 170 bar bo'lishi;

— yo'l yotiq chiziqlarini belgilangan texnologik rejimda bir tekis, sifatli va uzluksiz chizish imkoniyatiga ega bo'lishi;

— yondosh trassalarda ikki tomonlama ishlash imkoniyatini ta'minlashi;

— harakat xavfsizligi nuqtayi nazaridan qarama-qarshi qatnov qismiga chiqmasdan yoki bunday zaruratni minimal darajaga tushirgan holda ishlarni bajarish imkonini berishi;

— bajariladigan ishlarning sifati, aniqligi va unumdorligini barqaror ta'minlashi.

Jalb etiladigan maxsus texnikalar ish unumdorligi, yoqilg'i tejamkorligi, uzoq masofalarda harakatlana olish imkoniyati, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlariga ehtiyojning nisbatan kamligi, shuningdek ishlarning sifatli va xavfsiz bajarilishini ta'minlash qobiliyati bo'yicha texnik topshiriq talablariga mos bo'lishi lozim.

Ishlarga jalb etiladigan mazkur turdagi maxsus texnikalarning ishlab chiqarilgan yili, qoida tariqasida, oxirgi 5 yil doirasida

		<p>bo'lishi maqsadga muvofiq. Bunda texnikaning ishlab chiqarilgan yili yagona baholash yoki rad etish mezonini hisoblanmaydi. Asosiy mezonlar sifatida texnikaning amaldagi texnik holati, ishonchliligi, xavfsizlik talablariga muvofiqdigi, ish unumdorligi hamda mazkur texnik topshiriqda belgilangan vazifalarni sifatli bajarish imkoniyati inobatga olinadi.</p> <p>Pudratchi zarurat tug'ilganda Subpudratchidan jalb etilgan texnikalarning ro'yxati, davlat raqami, texnik pasporti, texnik holati, foydalanish asosi, ishlab chiqarilgan yili hamda asosiy texnik ko'rsatkichlarini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilishga haqli.</p> <p>Belgilangan talablarga javob bermaydigan, texnik nosoz, xavfsizlik talablariga zid bo'lgan, tegishli hujjatlarsiz jalb etilgan yoki ish sifati va muddatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan transport vositalari va maxsus texnikalardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.</p>
16	<p><b>Yo'l yotiq chiziqlarining texnik ko'rsatkichlariga qo'yiladigan talablar</b></p>	<p>Yo'l yotiq chiziqlarini chizishda qo'llaniladigan materiallar va bajarilgan ishlar natijasi amaldagi standartlar hamda ushbu texnik topshiriqda belgilangan texnik ko'rsatkichlarga mos bo'lishi shart.</p> <p>Akril bo'yoq yordamida chiziladigan yo'l yotiq chiziqlarining qoplama qalinligi <b>500–600 mikron oralig'ida bo'lishi</b> hamda <b>500 mikrondan kam bo'lmasligi</b> shart.</p> <p>Sovuq plastik yordamida chiziladigan yo'l yotiq chiziqlarining qoplama qalinligi <b>1,5 mm dan kam bo'lmasligi</b> shart.</p> <p>Issiq plastik (termoplast) yordamida chiziladigan yo'l yotiq chiziqlarining qoplama qalinligi <b>1,5 mm dan kam bo'lmasligi</b> shart.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Qalinlikni o'lchash chiziqning kamida 10 ta nuqtasida (shablon yoki maxsus taroq yordamida) amalga oshiriladi va o'rtacha ko'rsatkich hisoblanadi. Agregat o'lchov xatosi 5% dan oshmasligi lozim.</li> </ul> <p>2. Optik va yorug'lik ko'rsatkichlari:</p> <p>Yo'l yotiq chiziqlarining tungi paytdagi solishtirma nur qaytarish koeffitsienti <b><math>RL = 300 \text{ mcd} \cdot \text{lx}^{-1} \cdot \text{m}^2</math></b> dan kam bo'lmasligi amaldagi standartlarga muvofiq (O'zMS 562:2025 yoki unga tenglashtirilgan standartlar asosida).</p> <p>Chiziqning oqlik darajasi <b><math>B = 60</math> foizdan kam bo'lmasligi</b> shart.</p> <p>Sun'iy yoritish ostida kunduzgi tarqalgan yorqinlik koeffitsienti <b><math>Qd = 300 \text{ mcd} \cdot \text{lx}^{-1} \cdot \text{m}^2</math></b> dan kam bo'lmasligi shart.</p> <p>Ho'l qoplama sharoitida chiziqning solishtirma nur qaytarish koeffitsienti <b><math>150 \text{ mcd} \cdot \text{lx}^{-1} \cdot \text{m}^2</math></b> dan kam bo'lmasligi shart.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Ushbu ko'rsatkichlar ish topshirilgan kundan boshlab dastlabki 30 kalendar kuni davomida maxsus retroreflektometr asbobi yordamida tekshiriladi. Ko'rsatkichlar pasaygan taqdirda ish qabul qilinmaydi.</li> </ul> <p>Yo'l yotiq chiziqlarining geometrik joylashuvi, yo'nalishi, tekisligi va koordinatalari loyiha hujjatlari, tasdiqlangan</p>

		<p>sxemalar hamda amaldagi standartlar talablariga mos bo'lishi shart.</p> <p>Chiziqning eni bo'yicha chetlanish <math>\pm 5</math> mm dan, uzluksiz chiziq uzunligi bo'yicha chetlanish <math>\pm 50</math> mm dan oshmasligi lozim.</p> <p>Chiziqalar x va y o'qlari bo'yicha belgilangan joylashuvdan asossiz og'masligi, to'g'ri va aniq qo'llanilishi lozim.</p> <p>Belgilangan texnik ko'rsatkichlarga javob bermaydigan yo'l yotiq chiziqlari bajarilgan ish sifatida qabul qilinmaydi.</p> <p>Agarda chiziqning ko'chib ketishi (adageziya buzilishi) umumiy chizilgan maydonning 5% idan oshsa, butun uchastkadagi ish sifatsiz deb topiladi.</p> <p>Subpudratchi aniqlangan nuqsonlarni o'z mablag'lari hisobidan belgilangan muddatda (odatda 3–5 ish kuni) qayta tiklaydi yoki nuqsonlarni bartaraf etadi.</p>
17	<b>Hujjatlar va hisobotlar</b>	<p>Subpudratchi har bir ob'ekt bo'yicha quyidagi hujjatlarni rasmiylashtiradi va Pudratchiga taqdim etadi: bajarilgan ishlar dalolatnomasi, F-2 va F-3 shakllari (qo'llanilganda), xizmatlar jurnali, fotohisobot, demarkirovka dalolatnomalari, yashirin ishlar dalolatnomalari, materiallar sertifikatlari, laboratoriya sinov hujjatlari, o'lchov natijalari hamda hisob-kitob hujjatlari.</p> <p>Fotohisobotlarda ob'ekt manzili, ish turi, sana, bajarilgan ishlarning oldingi va keyingi holati, zaruratga ko'ra esa asosiy texnologik bosqichlar aks ettirilishi lozim.</p> <p>Bajarilgan ishlarning hajmi va sifati ob'ekt bo'yicha joyiga chiqib ko'rish, nazorat o'lchovlarini amalga oshirish, fotohisobotlarni solishtirish, ijro hujjatlarini tekshirish hamda zarur hollarda laboratoriya yoki instrumental nazorat natijalari asosida tasdiqlanadi.</p> <p>Bajarilgan yo'l yotiq chiziqlarining qalinligi, nur qaytarish ko'rsatkichlari, oqlik darajasi, kunduzgi va tungi ko'rinuvchanligi, shuningdek geometrik joylashuvi nazorat o'lchovlari, vizual ko'rik, instrumental tekshiruvlar hamda zarur hollarda laboratoriya sinovlari asosida tekshiriladi va tegishli dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.</p> <p>Nazorat o'lchovlari Pudratchi vakillari tomonidan, zarur hollarda Subpudratchi vakili ishtirokida amalga oshiriladi va tegishli dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. O'lchov natijalarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, bu haqda alohida dalolatnoma tuziladi hamda kamchiliklarni bartaraf etish muddati belgilanadi.</p> <p>Subpudratchi Pudratchi talabiga ko'ra qo'shimcha izohlar, o'lchov natijalari, materiallar bo'yicha tasdiqlovchi hujjatlar va boshqa zarur ma'lumotlarni belgilangan muddatda taqdim etishi shart.</p> <p>Hajm, sifat yoki qo'llanilgan materiallar bo'yicha tegishli dalolatnoma, o'lchov natijalari, sertifikatlar yoki boshqa tasdiqlovchi hujjatlar bilan tasdiqlanmagan ishlar qabul qilingan deb hisoblanmaydi.</p>

18	<b>Pudratchi va Subpudratchi o'rtasidagi hamkorlik tartibi</b>	<p>Pudratchi ariza yuboradi, Subpudratchi esa arizada ko'rsatilgan ishlarni qabul qilib, belgilangan muddatlarda bajaradi.</p> <p>Subpudratchi bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma va hisob hujjatlarini Pudratchiga taqdim etadi.</p> <p>Agar Pudratchida bajarilgan ishlar hajmi, sifati yoki hujjatlar bo'yicha e'tirozlar bo'lsa, ular yozma ravishda Subpudratchiga yuboriladi. Subpudratchi asosli e'tirozlarni belgilangan muddatda bartaraf etishi shart.</p> <p>Taraflar o'zaro yozishmalarni rasmiy xat, elektron pochta yoki shartnomada belgilangan boshqa aloqa vositalari orqali amalga oshiradilar.</p>
19	<b>Ishlarni qabul qilish tartibi</b>	<p>Pudratchi bajarilgan ishlarni hajm, sifat va muddat bo'yicha tekshiradi.</p> <p>Bajarilgan ishlar dalolatnoma asosida, zarurat bo'lganda ob'ektga chiqib ko'rish yo'li bilan qabul qilinadi.</p> <p>Agar kamchiliklar aniqlansa, Pudratchi aniqlangan kamchiliklar dalolatnomasini tuzadi va ularni bartaraf etish muddatini belgilaydi.</p> <p>Kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng ishlar takroran ko'rib chiqiladi va qabul qilinadi.</p>
20	<b>To'lov shartlari</b>	<p>To'lovlar shartnomada belgilangan tartibda, naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi.</p> <p>Avans to'lovi, oraliq va yakuniy to'lovlar miqdori hamda muddatlari shartnoma shartlariga muvofiq belgilanadi.</p> <p>Asosiy to'lov bajarilgan ishlar dalolatnomasi va tegishli moliyaviy hujjatlar imzolanganidan keyin amalga oshiriladi.</p>
21	<b>Sifat kafolati</b>	<p>Subpudratchi bajarilgan ishlar sifati yuzasidan qabul qilish hujjati imzolangan kundan e'tiboran kamida 6 (olti) oy kafolat muddati beradi.</p> <p>Kafolat muddati davomida aniqlangan barcha nuqson va kamchiliklar, agar ular ishlarni bajarish texnologiyasiga rioya etilmaganligi, sifatsiz materiallardan foydalanilganligi yoki Subpudratchining boshqa aybli harakatlari bilan bog'liq bo'lsa, Subpudratchi tomonidan o'z mablag'lari hisobidan bartaraf etiladi.</p> <p>Nuqsonlar aniqlangan taqdirda Pudratchi bu haqda yozma xabarnoma yuboradi yoki tegishli dalolatnoma tuzadi. Mazkur xabarnoma yoki dalolatnomada aniqlangan nuqsonlar ro'yxati hamda ularni bartaraf etish muddati ko'rsatiladi. Belgilangan muddat Subpudratchi uchun majburiy hisoblanadi.</p> <p>Agar Subpudratchi nuqsonlarni belgilangan muddatda bartaraf etmasa, Pudratchi ularni uchinchi shaxslarni jalb etgan holda bartaraf etish hamda yetkazilgan xarajatlarni amaldagi qonunchilik va shartnoma shartlariga muvofiq Subpudratchidan undirish huquqiga ega.</p> <p>Kafolat muddati davomida aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish kafolat muddatini bekor qilmaydi va nuqson bartaraf</p>

		etilgan qism bo'yicha kafolat muddati qayta hisoblanishi mumkin.
22	<b>Xavfsizlik, mehnat muhofazasi va atrof-muhit talablari</b>	<p>Subpudratchi ishlarni bajarishda yo'l harakati xavfsizligi, mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi, sanitariya va ekologiya talablari hamda boshqa majburiy qoidalarga qat'iy rioya etishi shart.</p> <p>Ishchilar maxsus kiyim-bosh, shaxsiy himoya vositalari va signalli moslamalar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.</p> <p>Ishlar natijasida hosil bo'lgan chiqindilar belgilangan tartibda yig'ilishi, olib chiqilishi va utilizatsiya qilinishi lozim.</p>
23	<b>Javobgarlik</b>	<p>Subpudratchi ishlarni sifatsiz bajarish, muddatlarni buzish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik yoki uchinchi shaxslarga zarar yetkazish oqibatlari uchun amaldagi qonunchilik va shartnoma asosida javobgar bo'ladi.</p> <p>Pudratchi to'lovlarni asossiz ravishda kechiktirgan yoki arizalarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning noto'g'riligi oqibatida yuzaga kelgan holatlar bo'yicha amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladi.</p>
24	<b>Normativ-huquqiy va texnik hujjatlar</b>	<p>Ushbu texnik topshiriqni bajarishda quyidagi normativ-huquqiy va texnik hujjatlarga amal qilinadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— O'zMSt 562:2025 — Yo'l chiziqlari. Tasnifi. Texnik talablar;</li> <li>— GOST 23457-86 — Yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalari. Qo'llash qoidalari;</li> <li>— ShNQ 2.05.02-23 va sohaga oid boshqa amaldagi ShNQlar;</li> <li>— EN 1436 — Road marking materials. Road marking performance for road users;</li> <li>— EN 1824 — Road marking materials. Road trials;</li> <li>— EN 1871 — Road marking materials. Paint, thermoplastic and cold plastic materials. Physical properties;</li> <li>— EN 13197 — Road marking materials. Wear simulators;</li> <li>— O'zMSt ISO/IEC 17025 — Testing and calibration laboratories competence talablari;</li> <li>— sohaga oid boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, texnik reglamentlar va standartlar.</li> </ul> <p>Mazkur texnik topshiriqni bajarishda milliy standartlar asosiy majburiy normativ baza, xalqaro va Yevropa standartlari esa qo'llaniladigan materiallarning sifati, ekspluatatsion ko'rsatkichlari hamda laboratoriya sinovlari ishonchligini tasdiqlovchi texnik asos sifatida qo'llaniladi.</p> <p>Xalqaro standartlar milliy standartlarga zid bo'lmagan holatda qo'llaniladi va ularga tenglashtirilgan standartlar ham qabul qilinadi.</p>
25	<b>Takliflarni baholash mezonlari va tartibi</b>	<p>Takliflar 100 ballik tizim asosida baholanadi.</p> <p><b>1. Narx taklifi — 20 ball</b></p> <p>Eng past narx taklifiga 20 ball beriladi. Boshqa ishtirokchilarning narx takliflari quyidagi formula asosida baholanadi:</p> <p><b>Ball eng past narx / taklif etilgan narx × 20</b></p>

Hisob-kitob natijasi kasr ko‘rinishida chiqqanda, ball verguldan keyin ikki xonagacha yaxlitlanadi.

## **2. Texnik talablarga muvofiqlik — 40 ball**

Quyidagi hujjatlar to‘liq taqdim etilganda jami 40 ball beriladi:

- O‘zMSSt 562:2025 talablariga mos texnik taklif — 10 ball;
- EN 1436 yoki unga tenglashtirilgan xalqaro standartlar bo‘yicha performance report — 10 ball;
- EN 1824 bo‘yicha road trial report — 5 ball;
- EN 1871 bo‘yicha physical properties report — 5 ball;
- EN 13197 bo‘yicha wear resistance report — 5 ball;
- O‘zMSSt ISO/IEC 17025 bo‘yicha akkreditatsiyani tasdiqlovchi hujjat — 5 ball.

Ushbu bo‘lim bo‘yicha ball faqat tegishli hujjat mavjud bo‘lganda beriladi. Hujjatning mavjud emasligi uchun shu hujjatga ajratilgan ball berilmaydi. Majburiy talab sifatida belgilangan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda taklif keyingi baholashga qo‘yilmaydi.

## **3. Maxsus texnika va uskunalarning mavjudligi — 15 ball**

Talab etilgan texnika va uskunalarning mulk, ijara, lizing yoki boshqa qonuniy asosda mavjudligi tasdiqlovchi hujjatlar bilan baholanadi:

- 2-ilovada ko‘rsatilgan eng kam tarkib va umumiy 27 dona texnika to‘liq tasdiqlangan bo‘lsa — 15 ball;
  - 2-ilovadagi eng kam tarkib to‘liq tasdiqlangan, biroq yordamchi texnikalar bo‘yicha hujjatlarning ayrimlari qo‘shimcha tasdiqlashni talab etsa — 10 ball.
  - texnikalarning faqat bir qismi tasdiqlangan bo‘lsa — 5 ball;
  - texnikalar mavjudligi tasdiqlanmagan bo‘lsa — 0 ball.
- Majburiy eng kam tarkib tasdiqlanmagan taqdirda taklif rad etiladi.

## **4. Malakali xodimlar va ishchi guruh — 5 ball**

Muhandis-texnik xodimlar, operatorlar, haydovchilar va markirovka bo‘yicha mutaxassislarning mavjudligi buyruq, mehnat shartnomasi, diplom, guvohnoma yoki sertifikatlar bilan tasdiqlanadi:

- to‘liq tarkib taqdim etilgan bo‘lsa — 5 ball;
- asosiy mutaxassislar taqdim etilgan, biroq ayrim yordamchi xodimlar bo‘yicha hujjatlar to‘liq bo‘lmasa — 2 ball;
- yetarli tarkib tasdiqlanmagan bo‘lsa — 0 ball.

## **5. O‘xshash ishlar bo‘yicha tajriba — 10 ball**

Oxirgi 3 yil ichida gorizonttal yo‘l chiziqlarini chizish va/yoki demarkirovka ishlari bo‘yicha bajarilgan shartnomalar, dalolatnomalar va ijobiy tavsiyanomalar asosida baholanadi:

- 3 ta va undan ortiq bajarilgan shartnoma bo‘yicha hujjatlar taqdim etilgan bo‘lsa — 10 ball;
- 1 ta yoki 2 ta bajarilgan shartnoma bo‘yicha hujjatlar taqdim etilgan bo‘lsa — 5 ball;
- tajriba tasdiqlanmagan bo‘lsa — 0 ball.

		<p><b>6. Kafolat va bajarish muddati — 10 ball</b>  Mazkur texnik topshiriqda belgilangan minimal talablar bilan taqqoslab baholanadi:  — agar ishtirokchi kafolat muddatini oshirsa va bajarish muddatini buyurtmachi foydasiga yaxshiroq taklif qilsa — 10 ball;  — minimal talablarni to'liq qabul qilish va ularni hujjatda aniq tasdiqlash — 3 ball;  — minimal talablar qabul qilingan, lekin muddat yoki kafolat bo'yicha ma'lumot noaniq yoki umumiy ifodalangan — 1 ball.</p> <p><b>Majburiy talablar</b>  Mazkur hujjatlar minimal (majburiy) talablar hisoblanadi va ular mavjud bo'lmagan taqdirda ishtirokchi baholash jarayoniga qo'yilmaydi:  — davlat ro'yxatidan o'tganlik hujjati;  — soliq va rekvizit ma'lumotlari;  — texnik taklif;  — narx taklifi;  — materiallar bo'yicha sertifikatlar va sinov hujjatlari;  — texnikalar ro'yxati va ularni tasdiqlovchi hujjatlar;  — tajriba hujjatlari;  — korrupsiyaga qarshi ariza;  — benefitsiar to'g'risidagi ma'lumotlar, agar elektron portal yoki amaldagi tartibda talab etilsa.  Baholash faqat hujjatlar bilan tasdiqlangan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Hujjatlar bilan tasdiqlanmagan ma'lumotlar baholashda inobatga olinmaydi.</p>
26	Izox	<p>“O‘zavtoy o‘lbelgi” davlat muassasasi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining 2026-yil 19-fevraldagi 10-son buyrug‘iga asosan “O‘zavtoy o‘lbelgi” davlat unitar korxonasi huquqiy vorisi hisoblanadi. Shu munosabat bilan ushbu xarid jarayonida buyurtmachi sifatida “O‘zavtoy o‘lbelgi” davlat muassasasi ishtirok etadi. Muassasaning amaldagi Nizomiga muvofiq, yo‘l yotiq chiziqlarini chizishga doir xizmatlar (ishlar) uning asosiy faoliyat turlaridan hisoblanadi.</p>

### Ilova 1

#### Yo'l chiziqlari turlari va xizmatlarni tasniflash

T/r	Belgi turi	Xizmat tavsifi	Material / usul
1	1.1 - 1.11	Tik va asosiy gorizontal yo'l chiziqlari	Sovuq plastik / termoplast / akril bo'yoq
2	1.12, 1.14.1 - 1.14.4, 1.15	Piyodalar o'tish joylari va unga yondosh chiziqlar	Sovuq plastik / termoplast / akril bo'yoq
3	1.13, 1.18 - 1.30	Yo'naltiruvchi, ogohlantiruvchi va maxsus chiziqlar	Sovuq plastik / termoplast / akril bo'yoq
4	1.16.1 - 1.16.3, 1.17	Murakkab konfiguratsiyadagi chiziqlar	Sovuq plastik / termoplast / akril bo'yoq
5	1.31	Shovqinli chiziqlar	Termoplast / sovuq plastik

6	Demarkirovka	Eskirgan yoki keraksiz bo'lib qolgan chiziqlarni olib tashlash	Mexanik yoki boshqa ruxsat etilgan usul
---	--------------	--	---

Izoh: Xizmatlar chiziq turi, murakkablik darajasi, ishlatiladigan material, ob'ekt sharoiti va demarkirovka zaruratiga qarab baholanadi.

## 2-Ilova

### Subpudratchi tomonidan jalb etilishi lozim bo'lgan transport vositalari va maxsus texnikalarning eng kam tarkibi:

T/r	Texnika turi	Eng kam miqdor
1	Yo'l chiziqlarini avtomatik chizish uchun asosiy mashina	Kamida 4 dona
2	Termoplast bilan ishlovchi chiziq chizish texnikasi	Kamida 2 dona
3	Akril bo'yoq bilan ishlovchi markirovka uskunasi	Kamida 8 dona
4	Qo'lda ishlatiladigan markirovka uskunalar	Kamida 3dona
5	Demarkirovka texnikasi yoki uskunasi	Kamida 3 dona
6	Yordamchi transport vositalari va xizmat ko'rsatish texnikasi	Kamida 3dona, ish hajmiga qarab

Izoh: Texnikalar umumiy soni 2-ilovada ko'rsatilgan tarkib minimal talab sifatida qo'llaniladi.

## 3-Ilova

### Taklif qilinayotgan narx yo'l chiziqlari turlari va xizmatlaridan kelib chiqib quyidagi tartibda va o'lchov birligida narx takliflari qabul qilinadi (Termoplast / sovuq plastik/ akril bo'yoq)

T/r	Belgi turi	O'lchov birligi	Xizmat tavsifi	Taklif qilingan narx
1	1.1	1 km	Uzluksiz va asosiy gorizontal yo'l chizig'I (0.10m)	
2	(1.1)- 1:4	1 km	Uzluksiz va asosiy gorizontal yo'l chizig'I (0.10m)	
3	(1:7)-1:1	1 km	Uziq-uziq chiziq (0.10m)	
4	(1.5)-1:3	1 km	Uziq-uziq chiziq (0.10m)	
5	(1.6)-3:1	1 km	Uziq-uziq chiziq (0.10m)	
6	(1.12)	100 m	Stop chizig'I (qalinligi 0.4m)	
7	1.13	100 m	Uchburchak belgisi o'lchami 0.6x0.6 m)	
8	1.14.1	100m	Piyodalar o'tish joyi (yaxlit chiziq, qalinligi 0.4m)	
9	1.15	100m	Velosiped yo'lakchasi (0.4x0.6 m)	
10	1.15.1	100 m	Piyodalar o'tish joyi (yaxlit chiziq, (yaxlit chiziq, qalinligi 0.4m))	
11	1.16.1/2/3	100 m	Belgilangan hudud (zona)	
12	1.17	100 m	To'xtash joyi	
13	1.18.1/2/3	1 dona	Yo'nalish strelkasi	
14	1.23	100 m	Vertalyot qo'nish maydonchasi(qalinligi 0.20m)	
15	Demarkirovka	100m <sup>2</sup>	Eskirgan yoki keraksiz bo'lib qolgan chiziqlarni olib tashlash	

Izoh: Yo'l chiziqlari turlari va ularning texnik tavsiflari O'zMS, GOST, ShNQ hamda sohaga oid boshqa amaldagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq belgilangan bo'lib, mazkur jadval ushbu standartlarga zid bo'lmagan holda ishlab chiqilgan.

**Mazkur texnik topshiriq e'lon berish va shartnoma tuzishda qo'llaniladigan asosiy texnik hujjat hisoblanadi.**

Ishlab chiqarish bo'limi boshlig'I v.b.

Ishlab chiqarish bo'limi mutahasisi

Two handwritten signatures in blue ink. The top signature is larger and more stylized, while the bottom one is smaller and more compact.

Yuldoshev M.

Ro'ziboyev.Sh